

**RASHID XO‘JAMOV SHE‘RIYATIDA STILISTIK FIGURALAR VA  
EKSTRALINGVISTIK VOSITALARNING POETIK FUNKSIYASI***Mahliyoxon Xoshimova**FarDU Lingvistika: o‘zbek tili  
mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turli lingvistik vositalar haqida ma’lumotlar keltirilgan, shoir Rashid Xo‘jamov ijodidan nolisoniy, stilistik figuralar aniqlanib, tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvistik vosita, stilistik figura, ifoda-tasviriy vositalar, antiteza, takror, sanash usuli, oksyumoron.

**Kirish**

Adabiy matnlar tahlilida til vositalarining turli ko‘rinishlarini aniqlash, ularning estetik va kommunikativ vazifalarini belgilash bugungi stilistika va lingvistik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, she‘riyat tilida qo‘llanilgan nolisoniy (ekstralingvistik) va stilistik figuralar adabiy asarning badiiy-estetik qiymatini oshirish, muallifning individual uslubini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bunday vositalar nafaqat ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, balki o‘quvchida kuchli assotsiativ obrazlar hosil qilish, estetik taassurot uyg‘otish uchun xizmat qiladi.

O‘zbek zamonaviy poeziyasi vakillaridan biri — shoir Rashid Xo‘jamov ijodida ham ana shunday lingvistik vositalar keng va maqsadga muvofiq qo‘llanilganini kuzatish mumkin. Uning she‘rlarida xalqona timsollar, milliy ruh, tabiat manzaralari, inson ruhiy holatining nozik ifodasi ko‘pincha tilning stilistik boyliklari vositasida yuzaga chiqadi.

Ushbu maqolada Rashid Xo‘jamov she‘riyati tahlil qilinar ekan, unda qo‘llanilgan lingvistik vositalar — nolisoniy (ekstralingvistik) unsurlar va stilistik figuralar aniqlanadi, ularning poetik vazifasi va semantik-pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Shu orqali sho‘irning badiiy mahoratini ochib berish, uning uslubiy individualizmini ko‘rsatish maqsad qilinadi.

“O‘zbek adabiy tilining rivojlanishida badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Muallif voqelikni badiiy-estetik jihatdan ta‘sirchan, yorqin ifodalash uchun tilning fonetik, leksik va grammatik imkoniyatlaridan o‘ziga xos foydalanib, o‘zi bayon qilayotgan fikrni o‘quvchiga ixcham, aniq, ta‘sirchan qilib yetkazish uchun uzundan – uzoq ta‘rif va tavsiflar o‘rniga o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, kichraytirish, kinoya, majoz va boshqa vositalardan foydalangan holda aniq, lo‘nda qilib tushuntirishga

harakat qiladi. Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviriy vositalar deb ataladi.

Jumladan, Izzat Sulton —badiiy asar tilini jonli, obrazli qiladigan vositalar badiiy til vositalari, - deb ataydi va uning tarkibiga mubolag‘a, frazeologiya, jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish, metafora, metonimiya, intonatsion vositalar (ulardan eng ko‘p ishlatiladiganlaridan biri inversiya, bilib turib bilmaslikka olish) kabi vositalarni kiritadi hamda tahlil qilib o‘rganadi.

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni birlashtirib —badiiy tasvir va ifoda vositalar deb ataydi.”<sup>1</sup>

Muhokama va natijalar:

Quyida shoir ijodida qo‘llanilgan lingvistik vositalar: nolisoniy (ekstralingvistik), stilistik figuralarni aniqlaymiz hamda ularni tahlil qilamiz:

1. Antitezaning asosiy vazifasi kontrast hisoblanadi. Semantik kontrast asosida maxsus sintaktik strukturaga ega bo‘lgan nutq birliklarining stilistik maqsadda qarama-qarshi qo‘llanishi natijasida antiteza hodisasi yuzaga chiqadi.

*Elim esa tomoshatalab,  
Ko‘zboylog‘ich sehriga maftun.  
Va yerdagi xudolar uning  
bardoshini sinar kun-u tun.*

*Soxta do‘stlar bersin yigitga ko‘cha,  
Katta xato tug‘sin kichik xatolar.  
O‘g‘li etigidan suv o‘tgan kecha  
Oyoqda turmay ichsin otalar.  
Ayro bo‘lmoqlikdan ayromiz, shoyad,  
Shukrkim, toq dunda toq emasman men,  
Sensiz baxtiqaro edim bag‘oyat,  
Va haliyam baxti oq emasman men!*

Yuqoridagi misralarda “kun-u tun”, “katta va kichik”, “baxtiqaro, baxti oq” so‘zlari antiteza san‘atini hosil qilgan.

2. Takror – asosan, badiiy nutqqa xos sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biri. Til yoki nutq birliklarini ataylab, aynan takrorlash orqali muallif o‘z fikrining ta‘sir kuchini oshirishga, his-tuyg‘ularini bo‘rttirib ifodalashga erishadi. Takror badiiy adabiyotda keng tarqalgan, eng qadimiy stilistik vosita turi bo‘lib, so‘z ustalari undan tasvir etilayotgan obyektga bo‘lgan subyektiv munosabatlarni ifodalash, unga baho berish, tinglovchi yoki o‘quvchining diqqatini tortish maqsadida foydalanganlar.

<sup>1</sup> Mamajonov A., Rozikova G. Sintaktik stilistikaning nazariy masalalari. Darslik – Farg‘ona: FDU.,2024.

Takrorga misollar:

*Go 'ringizni bezab turgan kalimalar*

*Siznikidir!*

*Biznikimas,*

*Biznikimas!*

*Buncha jimsiz —*

*Shundoq arzon,*

*shundoq bachki*

*alqovlarni kuylashimiz...*

*Ayting, shartmi?*

*Men tilovat ohangida bo 'zlab keldim,*

*Hali zamon yo 'llar og 'ir o 'yga boshlar.*

*Holingizni bilar edim!*

*Yana bildim*

*Yupun-ochlar(!)*

*Yalang 'ochlar,*

*Qabrtoshlar,*

*Buncha jimsiz,*

*Buncha jimsiz,*

*Buncha jimsiz?*

*Muhabbat shart emas jonni to 'shamoq,*

*Shundoq ham bu umr quroqu ulam.*

*Ya 'ni oson bo 'lsin biroz yashamoq,*

*Ya 'ni buncha og 'ir kelmasin o 'lim.*

*Barmoqlarim — yonayotgan chog '*

*ko 'zlarimga mangu inar shab.*

*Sen kelasan,*

*shafqating tezroq...*

*Sen kelasan*

*behishtni hatlab.*

*G 'arq bo 'laman nigohlaringga,*

*O 'tdan kammam turishing o 'tru.*

*Alahlayman — anglaysan,*

*kuygan*

*so 'zlarimga*

*suv sepanan, suv...*

3. Sanash usuli sintaktik-stilistik vositalardan biri bo‘lib, ritmik xususiyatga ega bo‘lgan figuralar doirasiga kiradi. Sanash usuli sintaktik birliklarning bir xilda uyushib kelishi bilan ajralib turadi. Bunday usul yordamida hosil bo‘lgan sintaktik konstruksiyalarning komponentlari xuddi gap bo‘laklariday uyushgan bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, sodda gaplarda gap bo‘laklari qanday uyushib kelsa, qo‘shma gaplarda uning komponentlari shunday uyushadi.

Quyidagi she‘rda 2-misradagi gaplar sanash usulida yozib ketilgan:

*Ko‘zlarimga ko‘zingni  
belab qo‘ysam, maylimi?  
Yulduzlarni boshingdan  
elab suysam, maylimi?  
Tayinsizlikka yo‘yma  
bir Majnunning maylini,  
Kiprigim-la yurakday  
qo‘ling kelar silagim,  
Barmoqlaringga mahtal  
anor mening yuragim.  
Shaharlik daraxtlarga  
She‘rlarimni o‘qidim,  
Yomg‘irlarga pichirlab  
sirlarimni o‘qidim,  
Sen yerga tusharmisan,  
Yer chiqmay o‘z o‘qidan?  
Tashrifingga tashnalab  
qonar mening yuragim:  
barmoqlaringga mahtal  
anor mening yuragim.*

4. Oksyumoron – bu stilistik figura bo‘lib, ma‘nosi jihatdan bir-biriga zid yoki qarama-qarshi tushunchalarning birikmasidan tashkil topadi. U til vositasi sifatida gap yoki iborada kuchli estetik ta‘sir yaratish, obrazni kuchaytirish yoki murakkab holatni ifodalash uchun ishlatiladi.

*Mening onam —  
bir hovuch ko‘ngil,  
Qirq yil qirg‘in yengolmagan zot,  
oniy surur,  
abadiy g‘ussa,  
yohsiz yig‘i,  
tovushsiz faryod...*

Ushbu she’rda “oniy surur, abadiy g’ussa”, “yoshsiz yig’i”, “tovushsiz faryod” kabi birikmalarni oksymoronni yuzaga chiqargan.

1. “Oniy surur, abadiy g’ussa” – vaqt va holatdagi ziddiyat

“Oniy surur” — vaqtincha, o‘tkinchi baxt lahzasi bo‘lsa, “abadiy g’ussa” — doimiy qayg‘u va dardni anglatadi. Ushbu oksymoron orqali shoir ona hayotining real manzarasini — kam quvonch, ko‘p g‘am ifodasini beradi. Bu nafaqat estetik vosita, balki ijtimoiy-falsafiy xulosa hamdir.

2. “Yoshsiz yig’i” – ichki og‘riqning tashqi ko‘rinishsiz ifodasi

Odatda yig‘i ko‘z yoshi bilan kechadi, ammo bu yerda yig‘i – lekin yosh yo‘q. Bu, ehtimol, ichga yutilgan faryod, ko‘rsatmaslikka intilgan, ammo yurakni kuydirayotgan holatning timsolidir. Shuning uchun bu ibora ruhiy zo‘riqish, matonat va ichki iztirobni birgalikda ifodalaydi.

3. “Tovushsiz faryod” – sukutdagi hayqiriq

“Faryod” odatda ovozli ifoda, “tovushsiz” esa shovqinsiz holatdir. Ushbu badiiy ziddiyat orqali onadek odamlarning yuragidagi hayqiriq, ammo uni aytolmaslik, dardini yutish holati ifodalangan. Bu holat ko‘pincha ona siymosiga xos bo‘lgan fidokorlik, sabr, matonat timsolidir.

### Xulosa

Shoir Rashid Xo‘jamov ijodi badiiy til vositalarining boyligi va ularni mohirlik bilan qo‘llash jihatidan alohida e‘tiborga loyiqdir. Uning she‘riyatida ishlatilgan stilistik figuralar, ifoda vositalari she‘rning emotsional kuchini oshiradi, o‘quvchida chuqur estetik taassurot uyg‘otadi. Ayniqsa, oksymoronlar orqali shoir inson ruhiyatining murakkab, ziddiyatli holatlarini nozik badiiy uslubda ifodalay olgan. Shunday qilib, shoirning ijodini lingvistik jihatdan o‘rganish uning badiiy mahoratini ochib berishda katta xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mamajonov A., Rozikova G. Sintaktik stilistikaning nazariy masalalari. Darslik – Farg‘ona: FDU.,2024.
2. Xo‘jamov R., Al‘omon. She‘rlar – Toshkent: “Adabiyot”, 2022.
3. [https://t.me/R\\_Xojamov](https://t.me/R_Xojamov)